

## **O‘ZBEKISTONNING GLOBAL MADANIY VA ILMIY MAYDONDAGI O‘RNI**

**Furkatova Nilufar**

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Xalqaro munosabatlar va gumanitar fanlar fakulteti

“Siyosatshunoslik” yo‘nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: **Yakubova Shahzoda**

“Amaliy siyosatshunoslik” kafedrası o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada O‘zbekistonda o‘tkazilgan UNESCO konferensiyasining mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni, uning madaniy, ta’limiy va ilmiy sohalarga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilinadi. Tadbirning O‘zbekistonning xalqaro imijini mustahkamlashdagi ahamiyati, shuningdek 2023–2027 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston–UNESCO hamkorlik dasturi doirasida ilgari surilgan tashabbuslarning istiqbollari yoritiladi. Konferensiyaning o‘tkazilishi milliy madaniy merosni asrash, raqamli innovatsiyalarni joriy etish, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va yoshlar salohiyatini rivojlantirish kabi yo‘nalishlarda yangi imkoniyatlar yaratdi. Tahlil natijalari mazkur forumning O‘zbekistonni Markaziy Osiyoning madaniy va ilmiy markazlaridan biriga aylantirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri ekanini ko‘rsatadi.*

**Kalit so‘zlar;** tashabbuslar, raqamli transformatsiyalar, zamonaviy sivilizatsiyalar, barqaror taraqqiyot, tinchlik, madaniy ko‘prik

### **ABSTRACT**

*This article analyzes the role of the UNESCO conference held in Uzbekistan in the country’s development and its impact on cultural, educational, and scientific spheres. The study highlights the significance of the event in strengthening Uzbekistan’s international image, as well as the prospects of initiatives proposed within the framework of the Uzbekistan–UNESCO cooperation program for 2023–2027. The conference created new opportunities in areas such as the preservation of national cultural heritage, the implementation of digital innovations, the modernization of the education system, and the development of youth potential. The analysis results indicate that this forum serves as a key factor in positioning Uzbekistan as one of the cultural and scientific centers of Central Asia.*

**Keywords:** initiatives, digital transformations, modern civilizations, sustainable development, peace, cultural bridge.

## **KIRISH**

So‘nggi yillarda O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi mavqei sezilarli darajada mustahkamlanib, mamlakat xalqaro maydondagi tashabbuskor davlatlar qatoriga kirib bormoqda. Xususan, UNESCO kabi global miqyosdagi tashkilotlar bilan hamkorlikning jadallashuvi mamlakatning madaniy, ilmiy va ta’limiy siyosatida yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur konferensiyaning O‘zbekistonda o‘tkazilgani mamlakatning tarixiy-madaniy merosi, zamonaviy islohotlari va xalqaro tashabbuslari yuqori darajada e’tirof etilayotganidan dalolat beradi. Samarqandning an’anaviy ravishda sivilizatsiyalar chorrahasi sifatidagi nufuzi, xalqaro forumga mezbonlik qilish orqali yana bir bor tasdiqlandi. Shuningdek, konferensiya UNESCO bilan 2023–2027 yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturi doirasida ko‘zda tutilgan madaniy merosni asrash, raqamli innovatsiyalarni rivojlantirish va ta’lim tizimini modernizatsiya qilish kabi strategik yo‘nalishlarning amaliy ifodasiga aylandi. Shu bois ushbu tadbir O‘zbekistonning jahon sahnasida yanada faol, tashabbuskor va ochiq davlat sifatidagi qiyofasini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Qadim zamonlardan Samarqand Buyuk Ipak yo‘li kesishgan mintaqada joylashgan bo‘lib, Markaziy Osiyo va boshqa hududlar uchun katta madaniy markaz vazifasini bajargan. Aynan ko‘pgina ma’naviy boyliklar va tarixiy obidalarning haqiqiy uyi hisoblangan. Bugungi kunga kelib Samarqandning ushbu mavqei tiklanmoqda shuningdek, jahon e’tibori ushbu markazga qaratilmoqda. Yuqoridagi sabablardan kelib chiqib 2001-yil Samarqand UNESCO ro‘yxatiga kiritiladi. Yana bir tarixiy voqealardan biri UNESCOning 43-general konferensiyasi aynan O‘zbekiston hududida o‘tkazilishi bo‘ldi. Shavkat Mirziyoyev Slovakiya va Serbiya prezidentlari hamda tashkilot bosh kotibi bilan global tadbirni ochib berdi. Anjumanda qatnashish uchun 2800 dan ortiq delegatlar O‘zbekistonga kelgan va birinchi marta UNESCO bosh shtabidan chiqib Samarqandda o‘tkazilishining o‘zi katta tarixiy va O‘zbekistonning ta’lim, madaniyat ilm-fan sohasida o‘tkazilayotgan islohotlari natijasi bo‘ldi. YuNESKO bosh direktori Odri Azule moderatorlik qilmoqda. “Shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda gumanitar sohada global konsensus va ko‘p tomonlama hamkorlik mexanizmlarining zaiflashgani albatta barchamizda jiddiy tashvish uyg‘otmoqda. Geosiyosiy keskinlik va harbiy mojarolar ta’sirida sayyoramizdagi noyob yodgorliklar, muqaddas qadamjolar va bebaho madaniyat meros katta ziyon ko‘rmoqda. Davlatlar o‘rtasidagi bilim va texnologiyalar, raqamli resurslardan foydalanish bo‘yicha tafovut ortib bormoqda. Buning natijasida imkoniyatlar tengsizligi va qashshoqlik kuchaymoqda. Bunday murakkab vaziyat YuNESKOning asosiy vazifalarini to‘liq amalga oshirish bo‘yicha

say-harakatlarimizni har qachongidan ham ko‘proq birlashtirishni taqozo etmoqda. Biz YuNESKOning oliyjanob va ezgu maqsadlariga qat’iy sodiq ekanimizni yana bir bor ta’kidlaymiz”, - deydi prezident Mirziyoyev o‘z nutqida. Bu tarixiy konferensiyani yoritish uchun esa dunyoning yetakchi OAVlaridan 500 dan ortiq jurnalist va muxbirlari yetib kelgan. Bu shahar – yozuvchi Amin Maaluf ta’riflaganidek, yerning quyoshga yuzlangan eng go‘zal siymosidir. Bu yerda qadimgi Sug‘diyona va Baqtriya davrlaridan beri xalqlar sayohat qilgan, savdo-sotiq bilan shug‘ullangan va muloqotda bo‘lgan. Yunonlar, forslar, arablar, turklar, mo‘g‘ullar va boshqa ko‘plab xalqlar bu yerda o‘z izini qoldirgan. Aytilgan so‘zdan qaytilmaydigan buyuk savdo maskani – Samarqand turli davrlarda mustahkam qal’a, imperiya poytaxti, karvonlar to‘xtaydigan manzil, ilm-fan markazi va san’at beshigi bo‘lgan. Shaharning ilmiy va intellektual merosi zamonaviy dunyoni shakllantirgan. Ko‘p tomonlama munosabatlarning ahamiyati shubha ostiga olinayotgan bir paytda, biz birgalikda muloqotimiz va amaliy harakatlarimizning dolzarbligini isbotladik. Bu ushbu tanqidlarga biz bera oladigan eng yaxshi javobdir. So‘nggi sakkiz yil davomida biz faoliyatimizning markaziga muloqotni – konsensus usulini qo‘yishga erishdik. U barcha me‘yoriy va amaliy tashabbuslarimizni qo‘llab-quvvatlash uchun nafaqat davlatlarni, balki fuqarolik jamiyatlarini, eng ilg‘or mutaxassislarni, yirik kompaniyalarni va keng jamoatchilikni ham o‘z ichiga oladi”, - dedi YuNESKO bosh direktori Odri Azule. Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqida shunday ta’kidladi: bunday nufuzli xalqaro forumga mezbonlik qilish O‘zbekistonning keng ko‘lamli islohotlari hamda mamlakatning madaniy va ta’limiy hamkorlikdagi faol roliga xalqaro miqyosda berilgan yuksak e’tirofdir. Davlat rahbari UNESCOning ta’lim, ilm-fan, madaniyat va ommaviy axborot vositalari sohasidagi o‘nlab yillik xizmatlarini yuqori baholab, Samarqandning jahondagi eng qadimiy shaharlar qatoriga mansub ramziy ahamiyatini alohida qayd etdi. Mirziyoyevning ta’kidlashicha, “Samarqand azaldan sivilizatsiyalar, ilm-fan va bag‘rikenglik chorrahasi bo‘lib kelgan”. Prezident O‘zbekiston va UNESCO o‘rtasidagi 2023–2027 yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturiga ham to‘xtalib, ushbu dastur madaniy merosni asrash, ta’lim tizimini isloh qilish va raqamli innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilganini aytdi. Shuningdek, Xiva, Buxoro, Shahrisabz va Samarqandning UNESCOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgani, yaqin kunlarda esa Ipak yo‘li tarmog‘ining bir qismi sifatida Zarafshon–Qoraqum yo‘lagi ham ushbu ro‘yxatga qo‘shilgani qayd etildi. Bundan tashqari, Shashmaqom musiqa an’anasi, Lazgi raqsi, Navro‘z bayrami, kashtachilik va kulolchilik kabi O‘zbekistonning boy nomoddiy merosi UNESCO tomonidan e’tirof etilgani, bu esa mamlakatning Markaziy Osiyodagi madaniy markaz sifatidagi o‘rnini yanada

mustahkamlab borayotgani ta'kidlandi. Majlis davomida Mirziyoyev UNESCOning ko'rib chiqishi uchun bir qator tashabbuslarni ilgari surdi: inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash uchun sun'iy intellekt asosidagi o'quv vositalarini o'z ichiga olgan UNESCO platformasini yaratish, yoshlarni kelajak kasblariga tayyorlash maqsadida kasb-hunar ta'limi bo'yicha global sammit o'tkazish, 19-noyabrni "Hujjatli merosning xalqaro kuni" deb e'lon qilish, UNESCO huzurida Xalqaro raqamli meros institutini tashkil etish, ayollarning ilm-fan, madaniyat va ta'limdagi ishtirokini kengaytirish uchun "UNESCO Ayol Rahbarlar Akademiyasi"ni yo'lga qo'yish, olim va san'atkor ayollar uchun jahon forumini Samarqandda o'tkazish. Global muammolar, xususan, iqlim o'zgarishiga bag'ishlab so'z yuritarkan, prezident xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarurligini bildirdi va har yili barqaror ekologik amaliyotlarni tatbiq etayotgan shaharlarni rag'batlantirish maqsadida "UNESCO Ekologik poytaxti" maqomini joriy etishni taklif qildi. Shuningdek, davlat rahbari yolg'on axborotning xavflari haqida ogohlantirib, yoshlar orasida media savodxonligini oshirish, mas'uliyatli jurnalistikani qo'llab-quvvatlash va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish zarurligini ta'kidladi. Nutqining yakunida Prezident Mirziyoyev O'zbekistonning Sharq va G'arb o'rtasida ko'pri bo'lib xizmat qilishga tayyorligini hamda UNESCOning tinchlik, barqaror taraqqiyot va xalqaro o'zaro tushunishni mustahkamlashga qaratilgan global missiyasini faol qo'llab-quvvatlashini qayd etdi.

## **XULOSA**

Mazkur konferensiyaning O'zbekistonda o'tkazilishi mamlakatning xalqaro nufuzini oshirish, UNESCO bilan ko'p qirrali hamkorlikni mustahkamlash va milliy madaniy merosni keng dunyoga tanitishda muhim tarixiy voqea bo'ldi. Tadbir davomida ilgari surilgan tashabbuslar UNESCO Ekologik poytaxti, raqamli meros institutini yaratish, ayol rahbarlar akademiyasini tashkil etish, inklyuziv ta'lim platformasi kabi g'oyalar O'zbekistonning global miqyosdagi islohotlarni qo'llab-quvvatlovchi, zamonaviy jarayonlarga moslasha oladigan davlat sifatidagi salohiyatini namoyish etdi. Konferensiya mamlakatning raqamli transformatsiya, madaniy merosni asrab-avaylash, ta'limni modernizatsiya qilish va yoshlar bilan ishlash bo'yicha yangi imkoniyatlarini ochib berdi. Kelgusida ushbu hamkorlik O'zbekistonni Markaziy Osiyoning madaniy, ilmiy va ta'limiy markaziga aylantirishga xizmat qiladi, shuningdek, UNESCO bilan strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirib, mamlakatning xalqaro maydondagi faoliyatini izchil rivojlantiradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. UNESCO conference in Samarkand highlights Uzbekistan's heritage <https://timesca.com/unesco-conference-in-samarkand-highlights-uzbekistans-heritage/>
2. Samarqandda UNESCOning 43-konferensiyasi ish boshladi <https://kun.uz/news/2025/10/30/yunesko-43-bosh-konferensiyasi-samarqandda-ochildi>
3. General conference: 43<sup>rd</sup> session <https://www.unesco.org/en/general-conference/43>
4. General conference events and media highlights <https://43session.unesco.uz/>